


“TASDIQLAYMAN”

Jamoatchilik kengashi raisi

 **A. Ishanxodjayev**

2025-yil 19-may

**Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi
Jamoatchilik kengashi yig‘ilishi
BAYONI**

2025-yil 15-may

3-son

Toshkent shahri

Raislik qiluvchi: A. Ishanxodjayev, Kengash raisi, O‘zbekiston axborot texnologiyalari va ommaviy kommunikatsiya xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi raisi

Ishtirok

etganlar:

Taklif

etilganlar:

Jamoatchilik kengashi a‘zolari (ro‘yxat bo‘yicha)

Raqamli texnologiyalar vazirligi rahbariyati, Vazirlik huzuridagi “Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi” davlat muassasasi rahbar va xodimlari
“O‘zbekiston axborot texnologiyalari korxona va tashkilotlar assotsiatsiyasi” nodavlat notijorat tashkiloti hamda
“Huquqiy muammolarni o‘rganish markazi” nodavlat notijorat tashkiloti vakillari

Yig‘ilish

o‘tish joyi:

zoom platformasi orqali

Kengash raisi yig‘ilish kun tartibini muhokamaga qo‘ydi va Kengash a‘zolari tomonidan kun tartibi bir ovozdan qabul qilindi.

Kengashning 21 nafar a‘zosidan 19 nafari (kvorum) ishtirok etayotganligini inobatga olib, mazkur yig‘ilish vakolatli ega deb hisoblanadi.

KUN TARTIBI:

I. Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining yangilangan tarkibini tasdiqlash va faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida

II. “Elektron ishtirok jarayonlarida fuqarolarning, ayniqsa ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarning ishtirokini yanada rivojlantirish va raqamli hukumat tizimlariga foydalanuvchilar sodiqligini oshirish bo‘yicha tadqiqot olib borish” ijtimoiy ahamiyatga molik loyihani amalga oshirish to‘g‘risida

(A. Ishanxodjayev, O.Umarov, H.Muhitdinov, R.Asqarov, A.Fayzullayev, H.Ermatov, J.Usmanov, N.Barnayev...
A. Ishanxodjayev)

I. Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining yangilangan tarkibini tasdiqlash va faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida

Yig'ilishni O'zbekiston axborot texnologiyalari va ommaviy kommunikatsiya xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi raisi, Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi raisi A.Ishanxodjayev kirish so'zi bilan ochib, 2024-yil yakuniga ko'ra Vazirlik tomonidan Jamoatchilik kengashi faoliyatiga oid ma'lumotlar "Yuksalish" umummilliy harakati hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga taqdim etilganligini, jamoatchilik kengashlari faoliyatini muvofiqlashtirishga mas'ul ushbu ikki organ bergan ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2021–2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2021-yil 4-martdagi PF–6181-son Farmoni talablaridan kelib chiqib, davlat organlari huzuridagi jamoatchilik kengashlari tarkibining kamida 50 foizini nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari tashkil etishi belgilanganligini, Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi tarkibidagi nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari yetarli foizda emasligini ma'lum qildi.

Birinchi masala yuzasidan, Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi kotibi, vazir maslahatchisi N.Abdullayev so'zga chiqib, "Yuksalish" umummilliy harakati hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi mas'ullari bilan ishchi tartibda ishlangani hamda Jamoatchilik kengashi tarkibini yanada takomillashtirish maqsadida Vazirlikning 2025-yil 14-maydagi 09-8/3321-son xati bilan "Yuksalish" umummilliy harakati, "Taraqqiyot strategiyasi" markazi hamda O'zbekiston milliy media birlashmasiga murojaat qilinganligi hamda ulardan quyidagilar kengash tarkibiga kiritish uchun nomzod sifatida kiritilganligini ta'kidladi:

Tulyakov Eldor Sobirjonovich - "Taraqqiyot strategiyasi" markazi ijrochi direktori;

Rajabov Umid Majidovich - "Yuksalish" umummilliy harakati raisining Xalqaro aloqalarni rivojlantirish bo'yicha maslahatchisi;

Abutalipov Abduaziz Abdulazizovich - O'zbekiston milliy media birlashmasi bosh direktori.

Jamoatchilik kengashi raisi A.Ishanxodjayev O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari talablarini bajarish, Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi tarkibini yanada boyitish, kengash va Vazirlik faoliyatiga keng jamoatchilikni jalb qilish maqsadida yuqoridagi nomzodlarni tarkibga kiritishni taklif qildi.

Masala yuzasidan Xalqaro press-klub raisi J.Usmanov, Senator, "Ishonch" va "Ishonch-Доверие" gazetalari bosh muharriri H.Ermatov, IT-Ta'lim uyushmasi raisi N.Barnayev, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti rektori v.b. B.Maxkamov va boshqalar ushbu nomzodlarning tarkibga kiritilishi nafaqat tarkibni kuchaytirishini, balki Vazirlik faoliyatiga oid masalalarning yanada keng targ'ib qilinishini ta'minlashini ta'kidlashdi.

Yig'ilish ishtirokchilari tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalar, takliflar asosida birinchi masala yuzasidan **qaror qildi:**

1. Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi faoliyati yuzasidan "Yuksalish" umummilliy harakati hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish

agentligi tomonidan o'rganishlar va ular ishchi tartibda taqdim qilgan axborotlar ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagi nomzodlarni Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi tarkibiga kiritish bo'yicha taklif bir ovozdan ma'qullansin va Kengashning yangilangan tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin:

Tulyakov Eldor Sobirjonovich - "Taraqqiyot strategiyasi" markazi ijrochi direktori;

Rajabov Umid Majidovich - "Yuksalish" umummilliy harakati raisining Xalqaro aloqalarni rivojlantirish bo'yicha maslahatchisi;

Abutalipov Abduaziz Abdulazizovich - O'zbekiston milliy media birlashmasi bosh direktori.

3. Kengash kotibi N.Abdullayev:

Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining yangi tarkibini tasdiqlash bo'yicha Vazirlikning tegishli buyrug'i loyihasini tayyorlasin, Rahbariyatga imzoga kiritsin;

Axborot xizmati (Sh.Axmatov) Jamoatchilik kengashining yangi tarkibi haqidagi ma'lumotlar Vazirlikning rasmiy veb-saytidagi maxsus bo'limga joylashtirilishini ta'minlasin.

II. "Elektron ishtirok jarayonlarida fuqarolarning, ayniqsa ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarning ishtirokini yanada rivojlantirish va raqamli hukumat tizimlariga foydalanuvchilar sodiqligini oshirish bo'yicha tadqiqot olib borish" ijtimoiy ahamiyatga molik loyihani amalga oshirish to'g'risida

Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi raisi A.Ishanxodjaev masala yuzasidan so'zga chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 26-avgustdagi PF-124-son Farmonining 7-bandi 3-xatboshisi bilan har yili vazirlik va idoralar fuqarolik jamiyati institutlariga budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan ijtimoiy buyurtma berish bo'yicha tanlovlar tashkil etishi, bunda, tanlovlar ustuvor ravishda inson huquqlarini himoya qilish, korrupsiyaga murosasiz muhitni shakllantirish hamda ta'lim, tibbiyot, ekologiya, qurilish, transport, kommunal xo'jaligi, bandlik, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va boshqa sohalarining eng dolzarb muammolari yechimiga qaratilishi belgilanganligini ma'lum qildi.

Shuningdek, mazkur Farmonning 7-bandi 5-xatboshisida tashabbusli loyiha belgilangan tartibga muvofiq davlat organi huzuridagi jamoatchilik kengashi tomonidan ijobiy baholangan taqdirda, uning tashabbuskoriga davlat organining byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan bazaviy hisoblash miqdorining ming baravarigacha miqdorda to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuzish yo'li bilan ijtimoiy buyurtma berilishi mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Mazkur topshiriq ijrosi doirasida, ya'ni Farmonning 7-bandi 3-xatboshisi hamda Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 22-fevraldagi 135-son qarori bilan belgilangan "Sotsial va ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish uchun davlat organlari tomonidan davlat ijtimoiy buyurtmasi berish tartibi to'g'risidagi nizom"ga asosan, Raqamli texnologiyalar vazirligi (keyingi o'rinlarda – Vazirlik) tomonidan

2025-yilda “Elektron ishtirok jarayonlarida fuqarolarning, ayniqsa ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarning ishtirokini yanada rivojlantirish va raqamli hukumat tizimlariga foydalanuvchilar sodiqligini oshirish bo'yicha tadqiqot olib borish” ijtimoiy ahamiyatga molik loyihasini Vazirlik huzuridagi “Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi” davlat muassasasi (keyingi o'rinlarda – Markaz) mablag'lari hisobidan amalga oshirish belgilanganligi ta'kidlandi.

Vazirlik topshirig'iga asosan, Markaz tomonidan loyihaning texnik topshirig'i ishlab chiqilib, Vazirlik bilan kelishilganligi, loyihaning taxminiy qiymatini aniqlash uchun tijorat takliflar yig'ilganligi hamda <https://etender.uzex.uz/> portalida tanlov e'lon qilinganligi, tanlovda 2 ta NNTdan takliflar kelib tushganligi, bular:

“O'zbekiston axborot texnologiyalari korxona va tashkilotlar assotsiatsiyasi” nodavlat notijorat tashkiloti;

“Huquqiy muammolarni o'rganish markazi” nodavlat notijorat tashkiloti ekanligi ma'lum qilindi.

Shu bilan birga, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 22-fevraldagi 135-son qarori bilan belgilangan “Sotsial va ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish uchun davlat organlari tomonidan davlat ijtimoiy buyurtmasi berish tartibi to'g'risidagi nizom”ning 4¹-bandiga muvofiq, davlat organlariga nodavlat notijorat tashkilotlaridan kelib tushgan loyihalarni ko'rib chiqish, umumlashtirish, baholash hamda nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan davlat ijtimoiy buyurtmasini bajarish natijalarining samaradorli aniqlash davlat organlari huzuridagi jamoatchilik kengashlari (keyingi o'rinlarda – Jamoatchilik kengashi) tomonidan aniqlanishi belgilanganligi aytib o'tildi.

Bunda, mazkur Nizmoning 26-band 2-xatboshisiga ko'ra, “Agar jamoatchilik kengashi a'zosi tanlovga loyiha taqdim etgan nodavlat notijorat tashkilotiga aloqador (nodavlat notijorat tashkiloti vakili (xodimi), rahbar organlarining a'zosi yoki ularning yaqin qarindoshi) bo'lsa, ushbu loyihani ko'rib chiqish, umumlashtirish va baholash jarayonida jamoatchilik kengashi tarkibida bo'lishni ixtiyoriy ravishda o'zini o'zi rad etadi yoki jamoatchilik kengashi a'zolari tomonidan majburan chetlashtirilishi” – belgilanganligi sababli, Jamoatchilik kengashi a'zosi Y.Moxova “O'zbekiston axborot texnologiyalari korxona va tashkilotlar assotsiatsiyasi” nodavlat notijorat tashkiloti ijrochi direktori lavozimida ekanligi uchun Jamoatchilik kengashi a'zosi sifatida ushbu loyihaga ovoz bermasligini ma'lum qildi.

Shundan so'ng kun tartibidagi masala yuzasidan mas'ullar tomonidan zarur ma'lumotlar taqdim qilindi hamda loyiha yuzasidan Markaz direktori A.Mansurov axborot berdi.

Masala yuzasidan Jamoatchilik kengashi raisi A.Ishanxodjayev, Raqamli texnologiyalar vazirining birinchi o'rinbosari O.Umarov, “UNICON.UZ” MChJ Bosh direktori M.Maxmudov, “O'zbekiston pochta” AJ Bosh direktori A.Fayzullayevlar o'z fikr-mulohazalarini bildirishdi.

Yig'ilish ishtirokchilari tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalar, takliflar asosida **qaror qilindi:**

1. Tanlovda ishtirok etayotgan tashkilotlar ichida jamoatchilik kengashi a'zosi hisoblangan “O'zbekiston axborot texnologiyalari korxona va tashkilotlar assotsiatsiyasi” nodavlat notijorat tashkiloti ijrochi direktori Y.Moxova ham borligi sababli, tanlovga kelib tushgan takliflarni baholash jarayonida Y.Moxova ishtirok etmasligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tanlovda ishtirok etayotgan tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan tanlov hujjatlarini Jamoatchilik kengashi a'zolari tomonidan baholash natijalari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. "Elektron ishtirok jarayonlarida fuqarolarning, ayniqsa ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarning ishtirokini yanada rivojlantirish va raqamli hukumat tizimlariga foydalanuvchilar sodiqligini oshirish bo'yicha tadqiqot olib borish" ijtimoiy ahamiyatga molik loyihasi bo'yicha taklif bergan tanlov ishtirokchilarining taqdim etgan tanlov hujjatlarini Jamoatchilik kengashi a'zolari tomonidan baholash natijalariga ko'ra "O'zbekiston axborot texnologiyalari korxona va tashkilotlar assotsiatsiyasi" nodavlat notijorat tashkiloti ikkinchi ishtirokchiga nisbatan ko'p ball to'plagan ma'lumot uchun qabul qilinsin.

5. Vazirlik huzuridagi "Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi" davlat muassasasiga (A.Mansurov) "Elektron ishtirok jarayonlarida fuqarolarning, ayniqsa ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarning ishtirokini yanada rivojlantirish va raqamli hukumat tizimlariga foydalanuvchilar sodiqligini oshirish bo'yicha tadqiqot olib borish" ijtimoiy ahamiyatga molik loyihani amalga oshirish uchun tanlovning yakuniy baholanish natijalariga asosan g'olib tashkilot bilan shartnoma rasmiylashtirsin.

6. Kengash ishchi organi (N.Abdullayev):

Vazirlik axborot xizmati (Sh.Axmatov) bilan birgalikda Jamoatchilik kengashi yig'ilishi o'tkazilganligi to'g'risidagi ma'lumotni Vazirlikning rasmiy veb-sayti, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari hamda boshqa ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritilishini tashkil qilish;

mazkur bayonni Jamoatchilik kengashi a'zolariga yetkazish choralarini ko'rsin.

Kengash kotibi

N. Abdullayev